
GCCR
Global Conference on Contemporary Research
GLOBAL CONFERENCE ON
CONTEMPORARY
RESEARCH
CONFERENCE THEME:
SUSTAINABLE FUTURES:
INNOVATION, DIGITAL TRANSFORMATION AND GLOBAL COLLABORATION THROUGH CONTEMPORARY RESEARCH
INNOVATION
DIGITAL TRANSFORMATION
GLOBAL COLLABORATION
SUSTAINABLE FUTURES
JOURNAL
PEER-REVIEWED PROCEEDINGS
OCTOBER

DEVELOPING INDEPENDENT AND CREATIVE THINKING AMONG STUDENTS OF THE MILITARY EDUCATION FACULTY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abidjanov Zafar Xamidjanovich

Senior Lecturer,

University of Military Security and Defence of the Republic of Uzbekistan

https://doi.org/10.5281/zenodo.23454060

Abstract: This article substantiates the need to assist students in the Faculty of Military Education in effectively mastering subject-matter knowledge and intellectual activity. It emphasizes the importance of developing their ability to creatively apply this knowledge to new situations arising in professional practice, as well as developing skills in solving academic problems in specialized disciplines.

Keywords: education, science, problem-based learning, lesson, teacher, technology, student, method, knowledge.

Annotatsiya: Maqolada harbiy ta’lim fakulteti talabalariga fan bilimlari tizimini va intellektual faoliyat usullarini samarali o’zlashtirishda yordam ko’rsatish zarurligi asoslanadi. Ularda kasb amaliyotida yuzaga kelayotgan yangi vaziyatlarda ushbu bilimlarni ijodiy qollash qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, soha fanlari boyicha oquv vazifalarini hal etish konikmalarini rivojlantirish muhimligi takidlandi.

Kalit so’zlar: ta’lim, fan, muammoli o’qitish, o’quv mashg’uloti, o’qituvchi, texnologiya, talaba, usul, bilim.

Аннотация: В статье обосновывается необходимость оказания помощи студентам факультета военного обучения в эффективном освоении системы предметных знаний и способов интеллектуальной деятельности. Подчеркивается важность формирования у них умения творчески применять эти знания в новых ситуациях, возникающих в профессиональной практике, а также развития навыков решения учебных задач по профильным дисциплинам.

Ключевые слова: образование, наука, проблемное обучение, учебное занятие, преподаватель, технология, студент, метод, знания.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalardan biri **muammoli** o‘qitishdir.

Muammoli o‘qitish maxsus ko‘rinishdagi motivatsiya – muammoni yaratishga asoslangan, shuning uchun, muammoli vaziyatlarni zanjir kabi taqdim etadigan materialni didaktik mazmunini adekvat tuzishni talab etadi.

Maxsus fanlar muammoli o‘qitish texnologiyasining asosiy vazifasi -talabalarning maxsus fanga oid bilimlar tizimini va aqliy faoliyat usullarini samarali o‘zlashtirishlariga yordam berish, ularda olgan bilimlarni kasbiy faoliyatlarida paydo bo‘ladigan yangi vaziyatlarda ijodiy qo‘llay olish, maxsus fanga oid o‘quv muammolarini yechish ko‘nikmalarini hosil qilish, mustaqil bilim orttirish qobiliyatlarini singdirishdan iborat.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi maxsus fanlar ta’limi jarayonini amalga oshirishda universal vosita hisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga ega bo‘lgandagina, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo‘ladi .

Maxsus fan o‘qituvchisi mashg‘ulotga tayërlanar ekan, biror o‘qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlashi, darsning maqsadi, maxsus fan o‘quv materialining mazmuni, auditoriya xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim.

Biroq, bunday aniqlash muammoli o‘qitishni tushunishning butun hajmini aks ettirmaydi. Bundan tashqari, ba’zan o‘qitishning tadqiqot usullari guruhi ham muammoli o‘qitish deb yuritiladi. Ehtimol, bu yerda ***muammoli*** so‘zini tadqiqot ma’nosida tushunish ta’sir ko‘rsatadi.

Maxsus fan o‘qituvchisi tomonidan qo‘yilgan muammoni hal etish jarayonida talaba ma’lumotlarni qayta ishlabgina qolmaydi, balki ularni o‘zlashtiradi va o‘zi uchun yangi bilimlarni kashf etadi.

Muammoli o‘qitishning asosiy mohiyati va afzalligi shundaki, o‘qituvchi ta’lim usullari (muammoli savollar qo‘yish, farazlarni ilgari surish va ularni tasdiqlash yoki rad etish, o‘quvchilarga yordam so‘rab murojaat etish va boshqalar) orqali ularni ijodiy fikrlash va

munozaraga chorlaydi. Maxsus fanlarni o‘qitishdagi muammoli metodlar – fandan muammoli vaziyatlar yaratishga, talabalarning maxsus fanlardan bilimlarini faollashtirishni talab etadigan, murakkab masalalarni izlash va yechishga, tahlilga, alohida faktlar ortida hodisa va qonunlarni ko‘ra olishlariga asoslangan metodlardir.

Muammoli ta’lim texnologiyalarida muammoli vaziyat yaratish, savollarni to‘g‘ri qo‘ya bilish va ularning yechimini guruh bilan birga va yakka holda izlash katta ahamiyat kasb etadi. Muammoli o‘qitish jarayonini qurish uchun mos ravishdagi muammoli vaziyatlarni oldindan ko‘zda tutilgan va tizimli yaratish talab qilinadi.

Quyida keltirilganlar maxsus fanlarni o‘qitish amaliyoti uchun ahamiyatlidir.

-Muammoli vaziyat ko‘pincha talaba yangi amaliy sharoitlarda oldin o‘zlashtirgan bilimdan foydalanish zarurati bilan duch kelganda hosil bo‘ladi. Bunda talabalar amaliy topshiriqlarni yechish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarlicha emasligi dalili bilan tez-tez duch keladi. Bu dalilni anglash o‘quvchilarda ongli qiziqishni uyg‘otadi va yangi bilimlarni izlashga undaydi.

-Topshiriqni yechishning nazariy mumkin bo‘lgan yo‘li va tanlangan usulning amaliy jihatdan amalga oshirilmasligi orasida qarama-qarshilik bo‘lgan holda muammoli vaziyat oson yuzaga keladi.

-O‘quv topshirig‘ini bajarish natijalariga amaliy jihatdan erishish va talabalarda uni nazariy asoslash uchun bilimlarning yo‘qligi orasida qarama-qarshilik bo‘lganda muammoli vaziyat yuzaga keladi.

-Eng ko‘p tarqalgan deb hisoblash mumkin. Agar talabalar qo‘yilgan masalaning yechish usulini bilmasa, ya’ni talabalar tomonidan yangi dalilni tushuntirish uchun oldingi bilimlarining yetarli emasligi tan olingan holda muammoli vaziyat yuzaga keladi .

Mashg‘ulot rahbari aniq o‘quv maqsadlariga yo‘naltirilgan savollar va topshiriqlar ishlab chiqishi lozim. Muammoli savollarni hal etishda yoki topshiriqlarni bajarishda talabalarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan harakatiga turtki beradi va jarayonni nazorat qiladi. Talaba esa, o‘z ta’limining faol qatnashchisi bo‘lib qoladi.

Muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Muammoli vaziyat talabalarni xizmat (kundalik) faoliyatiga asoslangan bo‘lishi kerak.

2. Muammoli topshiriq doimo maxsus fandan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasiga mos bo‘lishi lozim.

3. Muammoli vaziyat yangi mavzuni tushuntirishdan oldin qo‘yilishi kerak. Agar, muammoli vaziyatni hal etishga talabalar malakasi yetarli bo‘lmasa, ularga ayrim amallarni bajarishdagi ish usullarini ko‘rsatish, zarur bo‘lgan maxsus fan bilimlarini eslatish lozim.

4. Maxsus fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanishi maxsus fan o‘qituvchisining rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni hal etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. U o‘quv jaraënida, xulosa chiqarishga yordam beruvchi yo‘llovchi savollar berishni ham nazarda tutishi lozim.

Maxsus fanlarda muammoli vaziyatni o‘rganish maxsus fani mavzusiga oid materialni tahlil qilishda talaba shu vaziyatga o‘zi kirishishi, uni tushunishi, baholay olishi kerak. Ushbu holatda talaba qanday muammo borligi va qo‘yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o‘zining o‘rni va bunda o‘zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak.

Maxsus fanlardan muammoli vaziyatni qo‘yish: tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish kabi bosqichlarga bo‘linadi. Muammoli vaziyat o‘z mohiyati va mazmuni jihatdan maxsus fanlarni o‘qitishdagi mantiqiy ketma-ketlikka o‘xshaydi.

Ketma-ketlik prinsipi shundan iboratki, bunda ta’limning darajasi jihatdan yuqori har bir bosqichda o‘qitish mazmunini aniqlashda avvalgi bosqichlarda o‘zlashtirilgan bilimlar, ya’ni ta’lim hisobga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, **xulosa** o‘rnida shuni aytish mumkinki, muammoli vaziyat talabalarini bo‘lajak kasblariga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishning eng muhim omili bo‘ladi.

Maxsus fan o‘quv dasturlariga muvofiq o‘tiladigan ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va laboratoriya darslari uchun tuzilgan tarqatma materiallarda keltirilgan muammoli topshiriqlarga mos talabalar mustaqil ravishda tayyorlab keladigan savollari ifodalanib mashg‘ulotlarni tashkil

etish, ularning ijodiy fikrlashini uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Vaziyatli masalalarni guruhning barcha qatnashchilari bilan birgalikda muhokama qilish mumkin. Bunda yuqori natijalarga erishishni ta’minlovchi omillarni nazarda tutish lozim. Guruhda ishlashda monelik (to‘sqinlik, qarshilik qilish, yo‘l qo‘ymaslik) va tobelik (mashg‘ulot rahbarining fikriga qaramlik, itoatkorlik)dan ozod bo‘lish va vaziyatli topshiriqni yechishdagi imkoniyatlarini maxsus psixologik asoslash orqali har bir talabaning fikrlashini rag‘batlantirish kerak. To‘g‘ri yechim taklif etilishi bilan muhokama tugallanadi, degan fikr noto‘g‘ri bo‘lib, guruhda bildirilgan ijodiy fikr muloqot tarzda tadqiq etilishi lozim.

Yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlovchi asosiy sabablarning birinchisi, talabalarning ijodiy guruhiga nisbatan faolroq shaxslar qo‘shiladi va ularning muammoli masalani yechishda qatnashishi katta samara keltiradi.

Ijodiy fikrlashni tashkil etishning yuqorida tavsiya etilgan tizimda talabalar fikrlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va namoyon etish, guruhda muvaffaqiyatli ishlash kabilardan unumli foydalanadilar.

Muammoli o‘qitishda ***mashg‘ulot rahbarining*** faoliyati quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: talabalar e’tiboriga mavzu bo‘yicha muammoli savollar havola etadi; berilgan savollarning yechimini topishga yo‘nalish beradi; talabalar tomonidan berilgan yechimlarning to‘g‘riligini isbotlashni taklif etadi; agar talabalar tomonidan berilgan yechimlar to‘g‘ri bo‘lsa, maxsus fan mavzusi yuzasidan olingan bilimlar bo‘yicha xulosa qilishlarini tavsiya qiladi; talabalar tomonidan berilgan farazlar noaniq bo‘lsa, u holda yechimga yaqinlashtiruvchi savol qo‘yadi; javob va yechimlar bo‘yicha talabalarni rag‘batlantiradi yoki ba’zi noaniqliklarni ko‘rsatadi; maxsus fandan olingan yangi bilimlarni mustahkamlovchi savollarni qo‘yadi; olingan maxsus fanning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash uchun mashq yoki topshiriq beradi.

Mashg‘ulot davomida ***talabalarning*** faoliyati quyidagilardan iborat: mavzu muammosining savollarini qabul qiladi va uni yechim yo‘llarini izlay boshlaydi; berilgan savol bo‘yicha yechimning har xil variantlarini taklif qiladi; bergan farazlaridan birining to‘g‘riligini

isbotlashga harakat qiladi; yangi egallangan bilimlari to‘g‘risida xulosa va fikrlar bildiradi; to‘g‘ri yechimni izlaydi; mavzu bo‘yicha ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi; berilgan taklif, yechimlar hamda xulosalarni takrorlash orqali bilimlarini mustahkamlaydi; maxsus fanning nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriqlarni bajaradi.

Maxsus fanlardan o‘tkazilayotgan muammoli o‘qitish samaradorligi mashg‘ulot rahbari va talabalarning o‘zaro hamkorlik faoliyatiga bog‘liq. Muammoli o‘qitish talabalarning ilmiy-izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantiradi, ularning bilim olish faolligini oshiradi.

Mashg‘ulot rahbari muammoli o‘qitishda talabalarning bilim orttirish faoliyatini shunday tashkil etishi lozimki, talabalar dalillarni tizimli tahlil etish asosida intellektual qiyinchiliklarni mustaqil hal eta olsin, xulosa chiqarish va umumlashtirishni bajarsin, qonuniyatlarni ifodalasin, olgan bilimlarini kasbiy faoliyatining yangi vaziyatlarida qo‘llay olsin. Bunday o‘qitishda talabalarda bilimlarni mustaqil olish, farazlarni oldinga surish va ularni isbotlash yo‘li bilan aqliy faoliyatning yangi usullarini topish, bilimlarni qo‘llanish ko‘nikmalarini yaratish, diqqat va tasavvurni rivojlantirish qobiliyatlari shakllantiriladi .

Yuqoridagilarning barchasi bilim orttirish faolligini rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Maxsus fanlardan o‘quv muammolarini qo‘yish jarayonini yengillashtirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

muammoni yechish yo‘li bilan o‘zlashtiriladigan yangi bilimlar bevosita bog‘liq bo‘lgan, ilgari o‘zlashtirilgan bilimlarni yuzaga chiqarmasdan turib, muammoni qo‘yish mumkin emas;

muammoli topshiriqlarni tashkil etishdan avval o‘quvchilarning sabab oqibat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash usullarini bilishlariga ishonch hosil qilish kerak;

mashg‘ulot rahbari talabalar tushuna oladigan muammolarnigina qo‘yishi kerak;

muammoni samarali yechish uni to‘g‘ri ifodalab qo‘yishdan boshlanadi. Bu qoidalarni bajarish o‘quv materiali mazmunining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq o‘quv materialining tarkibi va mantiqiy tuzilishiga qator talablarni qo‘yadi.

Maxsus fan o‘quv materialida quyidagilar bo‘lishi lozim: yangilik elementlari (yangi tushunchalar, belgilar, hodisalar, bog‘lanishlar, harakat, ish usullari va h.k.); ma’lum va yangi

bilimlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar (biri boshqasini inkor qiladigan, ziddiyatli dalillar, savollar); o‘quv materiali pedagogik nazariyaga mos holda mantiqiy adekvat (bir ma’noda) bayon etilgan bo‘lishi lozim .

ADABIYOTLAR

1. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

2. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Молия, 2003.

3. Сериков В. В. Обучение как вид педагогической деятельности: учеб. пособие для вузов / В. В. Сериков; под ред. В. А. Сластенина, И. А. Колесниковой. - М.: Академия, 2008.

4. Ro‘ziev D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – T.: TDPU, 2013.

5. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: В 2 т. Т.1. – М.: НИИ школьных технологий, 2006.

6. Bekniyozov N.M.O‘qituvchi nimalarni bilish kerak:-T.:Fan va texnologiya, 2016.